

BOLALARDA SOG'LOM EGOIZMNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.**Xo'jamberdiyeva Muniraxon Farxod qizi****MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:10.10.2025**Revised: 11.10.2025**Accepted:12.10.2025***KALIT SO'ZLAR:***Egoizm, Alturizm, Id,
ego, Supper ego,
Avtanomiya.*

Mazkur maqolada bolala shaxsiyatida sog'lom egoizmning o'rni, mazmun mohiyati, ijobiy va salbiy jihatlari, bizning hayotimizda sog'lom egoizmning tutgan o'rni va to'g'ri shakillantirish haqida so'z boradi. Biz ushbu maqolada egoizm mavzusida ish olib borgan bir qator olimlarning fikrlari bilan ham qisqacha tanishib chiqamiz va o'z tahlillarimizni beramiz.

Kirish. Bugungi kunda bolalar tarbiyasida nafaqat bilim va ma'lumot berish, balki ularning shaxsiy chegaralarini bilishi, o'zini hurmat qilishi va boshqalarga nisbatan hurmatda bo'lishini o'rgatish dolzarb masalaga aylanmoqda. Psixologiyada bunday yondashuv "sog'lom egoizm" deb ataladi. Bu bola o'z ehtiyojlarini tushunishi, his-tuyg'ularini ifoda eta olishi, o'zini qadrlashi va shu bilan birga boshqalarning huquqlarini va shaxsiy chegarasini inobatga olish jarayonidir.

Jumladan mamlakatimizda ham bolalarning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan, yoshlarning har tomonlama rivojlanishi, jumladan, ularning psixologik salomatligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tegishli farmonlari va qarorlari, ayniqsa, yoshlar siyosati borasidagi islohotlar bu borada muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi "Yoshlar-ning ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol avlod etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5085-sonli qarori muhim ahamiyatga ega. Ushbu qaror doirasida:

maktablarda psixolog xizmati kuchaytirilmoqda, har bir maktabda malakali psixologlarning faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga alohida e'tibor berilmoqda, psixologlar bolalardagi turli muammolarni, jumladan, o'ziga ishonchsizlik, o'zini past baholash kabi holatlarni aniqlash va bartaraf etishga yordam bermoqda.

Shu bois bolalarda sog'lom egoizmni shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish, bu jarayonning psixologik asoslarini o'rganish hamda tarbiya va ta'lim tizimiga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb va zarur masalalardan biri hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat bolalarning shaxsiy rivojlanishini, balki ularning jamiyatga foydali va baxtli shaxs sifatida kamol topishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar sharhi: Sog'lom egoizm mavzusi ko'plab psixolog olimlar tomonidan turlicha izohlangan. Z. Freyd shaxsning "ego" tizimini psixikaning asosiy tuzilmasi sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, ego bolaning ichki ehtiyojlari va tashqi talablarni muvofiqlashtiruvchi "vositachi" sifatida ishlaydi. Shu sababli bolalik davrida ego faoliyatini qo'llab-quvvatlash — bolaning sog'lom rivojlanishiga asos yaratadi. Shu bois bolalarda sog'lom egoizmni shakllantirishda ularga mustaqil qaror qabul qilish imkonini berish, hissiyotlarini hurmat qilish va ijtimoiy qiziqishlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

E. Eriksonning psixososial rivojlanish bosqichlari nazariyasida 1,5–3 yosh oralig'idagi "avtonomiya, uyat va shubhaga qarshi" bosqichi aynan bola mustaqilligini, o'z tanlovini amalga oshirishini va bu orqali irodasini shakllantirishni ta'minlaydi. Bu bosqichda bolaning o'z fikrini aytishiga, xatolar qilishi va ulardan saboq olishi uchun imkon yaratish - sog'lom egoizmning boshlanishidir deya takidlaydi. Mustaqil qarorlar bera oladigan bolalar tabiiyki bu qarorlarning ma'suliyatini olishni o'rganib ulg'ayadilar bu esa yetuk inson sifatlaridan biridir.

A. Adler shaxs rivojida "ijtimoiy qiziqish"ni muhim omil sifatida ko'rsatadi. Adlerga ko'ra, sog'lom bola o'zini nafaqat o'ziga foydali, balki jamiyat uchun ham ahamiyatli his qilishi kerak. Bu bola egoizmini "faqat o'zim uchun" degan cheklangan doiradan "men jamiyatning bir qismiman" degan kengroq doiraga olib chiqadi. Etibor berilsa bolani sog'lom egoizmga o'rgatish uning nafaqat o'ziga balki uning yaqin atrofidagi barcha uchun foydali bo'ladi va jamiyatda mustaqil o'z fikriga ega insonlarning ko'pligi esa rivojlanish jarayonining tezlashuviga olib keladi.

K. Rodjers gumanistik yondashuvda shaxs rivojlanishi uchun "shartsiz qabul qilish" muhitini muhim deb hisoblaydi. Bolaga o'zini erkin ifoda etish va fikrlarini aytish imkoniyatini berish, uning sog'lom "Men" konsepsiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Darhaqiqt og'riqli bo'lsada tan olishimiz kerakki ko'plab ota-onalar ongli yoki ongsiz ravishda bolalar bilan shartli munosabatlar quradilar. Tabiyki bolalar bu munosabatlarni intuitiv his etib ulg'ayadi va bu ularning doimiy havotir, nimanidur uddalay olmaslikdan qo'rquv hissi kabilarni davomliy tarzda yashab o'tish orqali psixoemotsional buzulishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Egoizm haqidagi dastlabki qarashlar miloddan avvalgi IV asrga borib yetadi. Aristotel egoizmi baxtga intilish va shaxsiy manfaatni umumiy yaxshilik bilan uyg'unlashtirish zaruriyati bilan bog'lagan. Asosiy g'oya: inson baxtga intiladi; xarakter orqali o'rtacha yo'lni topib, shaxsiy manfaat va umumiy yaxshilikni uyg'unlashtirish zarur. Egoizmi to'liq man etmaydi - lekin individual maqsadlar axloqiy chegaralarda bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Bilamizki inson psixikasida bir qancha tabiy ehtiyojlar bor biz Maslau piramidasida orqali ham bu ehtiyojlar bilan tanishib chiqishimiz mumkin. Inson o'z ehtiyoj va manfaatlari yo'lida axloq normalarini buzish orqali jamiyatga zarar bermasligi lozim.

Epikur (miloddan avval IV–III asr) - Asosiy g'oya: baxt - azob va og'riqdan ozod bo'lish; shaxsiy lazzat va xavfsizlikga intilish. Egoistik tomonlari bor, lekin o'zini boshqalar bilan muvozanatda tutish orqali barqaror baxtga erishish kerak. Ba'zan epikurizm "o'z manfaati uchun yashash" deb noto'g'ri talqin qilinadi - aslida u o'lchovli, farovonlikka qaratilgan. Bizning mintalitetda insoniylik tuyg'usi yuqori bo'lgani uchun ham ba'zida noto'g'ri yondashuvlarni kuzatib turamiz yani yaqinlarga yordam berish yoki nochor insonlarga muruvvat ko'rsatish orqali ba'zi depressiv shaxs tipidagi insonlar o'z xohishlariga qarshi harakatlar sodir etadilar va yakunda stressga tushadilar, sog'lom egoizm esa shaxs avval o'z imkoniyat darajasini ko'rib chiqqan holatda yondashadi va natija ham me'yorda ikki taraf uchun foydali bir shakilda yakunlanadi.

Psixologik yondashuvlar - Zigmund Freyd (1856–1939) - ego va id tushunchalari orqali shaxsiy ehtiyojlar va jamiyat talablarini muvozanatlashtirish zarurligini ko'rsatdi. Asosiy g'oya - odam psixikasida "id" (instinktlar), "ego" (reallikka moslashuvchi qism) va "superego" (axloqiy talablar) mavjud. Ego - xulqni boshqaruvchi, lekin ko'pincha shaxsiy, biologik ehtiyojlar bilan bog'liq. Uning fikri bir so'z bilan aytganda juda ham to'g'ri bolalarga tarbiya berish jarayonida yanada aniqroq aytganda ularga dunyoni tanishtirish jarayonida yetuk inson sifatida ota-onalar va jamiyat tarafidan bolaning tabiy ehtiyojlari, o'z manfati keskin rad etilmasdan uni ijtimoiylashtirish, jamiyat me'yorlariga muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bilamizki bolalar uchun barcha narsa yangilik va u

naqadar to'g'ri tanishtirilsa bolaning rivojlanish jarayoni ham shu qadar tez va travmalardan holi tarzda kechadi.

Adam Smit (1723–1790) asosiy g'oya: iqtisodiy nazariyada «shaxsiy manfaat» jamiyat farovonligini oshirishi mumkin - “ko‘rinmas qo‘l” metaforasi. Shaxsiy manfaat ijobiy natijalar berishi mumkin, agar bozor va axloqiy institutlar to‘g‘ri ishlasa. Bu fikr juda ham to‘g‘ri agar biz bolalarga kichik yoshdan o‘z manfaatlarini jamiyatga eng ozdan oilasi uchun foydali bo‘ladigan tanlovlar qilish qobiliyatini shakllantirsak bu nafaqat davlat iqtisodiyoti balki rivojlanishning butun jabhasiga salmoqli hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

Muxokama va natijalar: Bolalarda sog‘lom egoizmni shakllantirish masalasi psixologiya, falsafa va pedagogika sohalarida keng muhokama qilinadi. Psixoanalitik maktab vakillari, jumladan Zigmund Freyd va uning izdoshlari, bolaning “Men” (Ego) rivojlanishini shaxsiy taraqqiyotning tabiiy bosqichi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, bola o‘z istaklarini ifoda eta olmasa, ichki psixologik ziddiyatlar kuchayadi va bu keyinchalik nevrotik buzilishlarga olib kelishi mumkin. Shu bois ular bolaning shaxsiy chegaralarini belgilashga va o‘z ehtiyojlarini bildirishi uchun sharoit yaratishga alohida e‘tibor qaratadilar.

Falsafada ham “egoizm” tushunchasiga nisbatan turli qarashlar mavjud. Psixologik egoizm tarafdorlari inson xatti-harakatlari asosan o‘z manfaatini ko‘zlashga qaratilganini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, hatto altruistik deb qaraladigan xatti-harakatlar ham aslida shaxsning o‘zini yaxshi his qilishi yoki ma’lum ijtimoiy foyda olishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, sog‘lom egoizmni tabiiy va muqarrar jarayon sifatida ko‘rish mumkin. Biroq bu qarashga tanqidiy yondashuvlar ham mavjud. Tanqidchilar psixologik egoizmni haddan tashqari umumlashtirilgan va ilmiy jihatdan rad etilishi qiyin nazariya deb baholaydilar.

Etik egoizm tarafdorlari esa shaxs o‘z manfaatini ongli ravishda ustuvor qo‘yishi kerakligini, bu axloqiy jihatdan to‘g‘ri ekanini ta’kidlaydilar. Ayn Randning “rational self-interest” (mantiqiy o‘z manfaatini ko‘zlash) konsepsiyasi aynan shu yondashuvga yaqin: u shaxsiy mustaqillik, qaror qabul qilishdagi erkinlik va o‘z hayotini boshqarish mas’uliyatini birlamchi deb biladi. Rand altruizmni idealizatsiyalash va shaxsiy qurbonlik qilish g‘oyalarini tanqid qiladi. Shu bilan birga, u nazariya jamiyatdagi hamkorlik va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlarni yetarlicha yoritmasligi bilan tanqid qilinadi.

Zamonaviy rivojlanish psixologiyasidagi tadqiqotlar ham bu mavzuga muhim hissa qo‘shadi. Nancy Eisenberg va hamkasblarining prosotsial motivatsiyalar haqidagi ishlari

shuni ko'rsatadiki, bolalarda yordam berish motivlari yosh o'tishi bilan o'zgaradi: dastlab tashqi rag'batlar (mukofot, maqtov) ustun bo'lsa, keyinchalik empatiya va axloqiy me'yorlarga asoslangan ichki motivatsiyalar kuchayadi. Bu esa shuni anglatadiki, sog'lom egoizmni shakllantirish jarayonida bola o'z manfaatlarini hisobga olgan holda, boshqalar ehtiyojlarini ham hurmat qilishni o'rganadi.

Sotsiologik va kollektivistik yondashuvlar esa haddan tashqari individualizm jamiyatda ijtimoiy bog'lanishlarning zaiflashishiga, hamkorlik va birdamlikning kamayishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, bolaning "Men" hissi bilan bir qatorda "Biz" tushunchasi ham rivojlanishi lozim. Bu qarashlar ayniqsa kollektiv qadriyatlar ustuvor bo'lgan jamiyatlarda muhim hisoblanadi.

Sog'lom egoizmni shakllantirish masalasi turli fanlarda qarama-qarshi fikrlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, u shaxsning o'zini hurmat qilishi va psixologik sog'lig'i uchun zarur omil sifatida qaralsa, boshqa tomondan, uning haddan tashqari rivojlanishi ijtimoiy munosabatlarda individualizmning ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, bu masalaga muvozanatli yondashuv muhim: bolaning shaxsiy manfaatlarini rivojlantirish bilan birga, unda ijtimoiy mas'uliyat, empatiya va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Xulosa: Yuqoridagi adabiyotlar sharhi, tadqiqot natijalari va diskussiya asosida shuni aytish mumkinki, bolalarda sog'lom egoizmni shakllantirish shaxs rivojlanishida muhim psixologik jarayon hisoblanadi. Bu jarayon bolaning o'zini hurmat qilishi, chegaralarini bilishi va ijtimoiy muhitda moslashuvchan bo'lishiga yordam beradi. Psixologlar fikricha, sog'lom egoizm bola shaxsiyatini himoya qiluvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi, pedagoglar esa uni shaxsiy qiziqish va qobiliyatlarni rivojlantirishning kaliti deb biladilar. Sotsiologik yondashuv esa bu xususiyatni jamiyatning faol va mustaqil a'zolarini shakllantirishga xizmat qiluvchi omil sifatida baholaydi.

Biroq, sog'lom egoizmni shakllantirish jarayonida bolada faqat "Men" hissi emas, balki "Biz" hissini ham rivojlantirish muhimdir. Bu yondashuv bolaning shaxsiy manfaatlari bilan jamoa qadriyatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi. Shu bois, kelgusida bolalar bilan ishlaydigan psixolog va pedagoglar uchun sog'lom egoizmni rivojlantirishga qaratilgan treninglar, psixologik mashg'ulotlar va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifadir. Ushbu sohada o'zbek olimlari tomonidan yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Freud, S. (1923). The Ego and the Id. Vienna: Internationaler Psychoanalytischer Verlag.
2. Jung, C. G. (1953). The Collected Works of C. G. Jung: Volume 7 (Two Essays on Analytical Psychology). Princeton University Press.
3. Fromm, E. (1947). Man for Himself: An Inquiry into the Psychology of Ethics. Rinehart & Company.
4. Adler, A. (1931). What Life Could Mean to You. Oxford: Oneworld Publications.
5. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.
6. Erikson, E. H. (1963). Childhood and Society. New York: Norton.
7. Rogers, C. R. (1961). On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin.
8. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.